
Muammo, murojaat va yechim – qabul murojaatlarning manzilli hal etilishiga xizmat qiladi

Yurtimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot inson qadri uchun xizmat qilmog'i lozim va bu tamoyil bugungi kunda oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. Bugun barcha davlat idoralari faoliyatida aholining murojaatlari bilan ishlash bo'yicha sifat jihatidan mutlaqo yangi tizim yaratildi. Joylarda o'tayotgan sayyor qabullar xalqning dardini eshitish, ularning muammolarini hal etishda, shak-shubhasiz, kutilgan natijalarni bermoqda. Rishton tumanida ham tuman hokimi va sektor rahbarlari tomonidan mahallalarda belgilangan rejaga asosan jismoniy va yuridik shaxslar uchun qabullar o'tkazib kelinmoqda. Navbatdagi qabulda fuqarolarning murojaatlari mas'ullar ishtirokida tinglanib, shu joyning o'zida ko'rib chiqildi. Qabul davomida fuqarolarning uy-joy rasmiylashtiruvi, elektr energiyasi ta'minoti, ichimlik suvi, yo'l va boshqa masalalardagi 35 ta murojaati qabul qilindi. Murojaatlarning 15 tasi shu joyning o'zida ijobiy hal etib berildi. Kelib tushgan murojaatlarning 12 tasiga tuman hokimi va mas'ullar tomonidan tushuntirish berilib, ko'tarilgan masalalar kelgusida amalga oshiriladigan dasturlar doirasida hal etilishi bildirildi. Ijrosi muddat va mas'ullar tomonidan qo'shimcha o'rganish talab qiladigan 8 ta murojaatga muddatlar belgilanib, mas'ullarga ijro uchun yo'naltirildi hamda ijrosi nazoratga olindi. Albatta bu kabi qabullarda aholi murojaatlarini joyida o'rganish va hal etish orqali mavjud muammolarning bartaraf etilishi, aholining roziligini ta'minlaydi.

2022-05-19 18:23:21